



DON MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

FACTORS AFFECTING THE COST OF PRODUCTION IN GRAIN-PROCESSING ENTERPRISES

**¹Djumanov Sayitmurod
Alimbekovich**

*¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliyaviy hisob va hisobot"
kafedrasi dotsenti, PhD. ORCID: 0009-0000-9266-4637,
E-mail: s.djumanov@tsue.uz*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar va ularni hisobga olish, tannarxga ta'sir etuvchi omillarni baholash, xarajatlarni yuzaga kelishi bo'yicha tasniflash masalalari bayon etilgan. Shuningdek maqolada tannarxni shakllantirish yo'nalishlari yoritib o'tilgan.

Eng. - The article discusses the costs arising during the production process in grain-processing enterprises and the methods for recording them, evaluating the factors influencing product cost, and classifying expenses based on their origin. The article also highlights the main approaches to cost formation.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ mahsulot tannarxi, xarajatlar, daromad, ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi, tannarx hisoblash usullari, boshqaruv hisobi, xarajatlar to'g'risidagi nizom, moliyaviy natijalar, materiallar.
❖ product cost, expenses, revenue, production, accounting, cost calculation methods, management accounting, regulation on expenses, financial results, materials.

Kirish.

Respublikamizda don mahsulotlarini yetishtirishga bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda mahsulot yetishtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yetishtiriladiga don mahsulotlarini tannarxini pasyatirish, xarajatlarni barqarorligini ta'minlash, ortiqcha chetlanishlarni oldini olish hisoblanadi. Bunday harakatlar don bozorini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2022-yildagi "G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning

qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarori [4] va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi [5] farmonining qabul qilinishi ayni shu sohani yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mahsulot tannarxini hisoblashning zamonaviy usullaridan keng foydalanish va uni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Karimov, M.Pardayev, A.Pardayev, R.Do'smurotov, B.Hasanov, N.Rizayev, A.Avloqulov, va J.Bahriddinovlarning ilmiy tadqiqotlari e'tirof

etish lozim. Ularni tadqiqotlari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi [6, 7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Izlanishlarimiz davomida, ma'lumotlarni guruhlash, ekspert xulosalari, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi, bozorlarda narxlar barqarorligini ta'minlash bugun dunyo mamlakatlarini birdek o'ylantirayotgan masalalardan biri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni bozor tamoyillari asosida belgilanadi. Ya'ni, talab va taklif asosida belgilanib, bugun qaysi mahsulot qanchadan sotilishini bir yoki bir necha kun

oldin bashorat qilishning imkoni yo'q. Faqat mamlakat tomonidan bozor narxlarini barqarorlashtirish choralarini ko'rish mumkin xolos.

Birgina don mahsulotlarini oladigan bo'lsak, don mahsulotlarini tannarxini shakllantirishga katta ahamiyat qaratish lozim. Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida respublikadagi barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8,4 mln. Tonna don va dukkakli don ekinlari yetishtirilgan.

Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,2 foizga o'sgan.

Mamlakatimiz hududlari bo'yicha yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlari hajmi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilning 9 oyida yetishtirilgan don va dukkakli don mahsulotlarining hududlar bo'yicha ulushi [10]

<i>Hudud nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>Yetishtirilgan mahsulot hajmi</i>
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	<i>tonna</i>	<i>255 146</i>
<i>Andijon viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>655 594</i>
<i>Buxoro viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>632 399</i>
<i>Jizzax viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>709 198</i>
<i>Qashqadaryo viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>880 946</i>
<i>Navoiy viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>285 428</i>
<i>Namangan viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>629 974</i>
<i>Samarqand viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>859 133</i>
<i>Surxondaryo viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>826 549</i>
<i>Sirdaryo viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>534 560</i>
<i>Toshkent viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>603 807</i>
<i>Farg'ona viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>956 263</i>
<i>Xorazm viloyati</i>	<i>tonna</i>	<i>577 818</i>

Hududlarni tabiiy joylashuvi, iqlimi, tuproq unumdorligi va suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra don yetishtirishni rejalashga bugungi kunda katta ahamiyat qaratilmoqda. Sababi don va don mahsulotlarini yetishtirishda yuzaga keladigan xarajatlar yakunda mahsulot tannarxini tashkil etadi. Don mahsulotini sotilish bahosi esa tannarx bilan teng yoki past bo'lmazligi zarur, bu qilingan xarajatlarni oqlash yoki oqlamasligini ifoda etadi. G'allani qabul qilish

va uni sotishda joriy etilgan bozor mexanizmlari, avvalo, aholimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda g'alla yetishtiruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida don va un mahsulotlarini bozordagi narx-navoni davlat belgilamaydi - buni bozor talabining o'zi belgilaydi. Bu jarayonda mamlakatimiz asosiy vazifasi taklifni ko'paytirish, buning uchun tadbirkorlarni ko'proq bozor iqtisodiyotida o'z

o'rnini topishi, birja savdolarida ishtirok etib, mahsulotini erkin sotishi, xarajatlarini kamaytirishga ko'maklashishdan iborat. Chunki bozorda talabga nisbatan taklif ko'p bo'lsa, narx barqarorligi ta'minlanadi va sog'lom raqobat muhiti shakllanadi.

Hududlarni ixtisosligiga ko'ra tegishli drayverlarga ajratish va eng samara beradigan mahsulotlarni yetishtirish yakunda mablag'larni tejash va kam xarajat evaziga mahsulotlar yetishtirish imkoniyatini yaratadi.

Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritishimiz lozim:

- moliyaviy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun subyektning ma'muriyatini zarur va yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- xarajatlardan chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazoratni o'rnatish, ularni me'yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish;

- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini hisoblash va boshqalar. Don va don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari ustidan tizimli nazoratni ta'minlash lozim, boisi mazkur xarajatlar mahsulot tannarxini boshqarish va sifatligini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi.

Ishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlar, ya'ni mehnat, mehnat qurollari va mehnat predmetlar uchun sarflangan xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlardir.

Ishlab chiqarish xarajatlari asosan ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'lib, u ta'minot va sotish jarayonlarini o'zaro bog'lab turadi. Ta'minot jarayonining vujudga kelish ishlab chiqarishda xarajatlarni keltirib chiqaradi va bu ishlab chiqarishda sodir bo'lgan xarajatlar

asosida korxonaning moliyaviy natijalari aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar aks ettiriladi hamda mahsulotlarning haqiqiy tannarxi hisob-kitob qilinadi.

Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilar dan iborat:

- natura va pul ifodasida ishlab chiqarishning haqiqiy hajmini aniqlash. Bunda jami ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori kabi, ular ayrim turlarining ham miqdori aniqlanadi;

- ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni aniqlash va mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash. Buning uchun korxonaning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga qilgan xarajatlari hamda alohida mahsulot turlarining tannarxi aniqlanadi.

"Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga asosan xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.

2. Asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari.

3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Favqulodda zararlar.

Xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlanishi xarajat elementlari deyiladi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi xarajat elementlariga bo'linadi:

1. Moddiy xarajatlar.

2. Mehnat haqi xarajatlari.

3. Ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar.

4. Asosiy va nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizatsiyasi).

5. Boshqa xarajatlar [2].

Xarajatlarni turlariga ko'ra guruhlanishi xarajat moddalari deyiladi.

Xarajatlarni xarajat moddalari bo'yicha hisobga olinishi boshqaruv hisobiga kirib, xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xarajat moddolari sonini o'zlari mustaqil belgilaydilar.

Xarajatlar uslubiga nazar soladigan bo'lsak, xarajatlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarajatlarga bo'linadi. To'g'ri xarajatlarni iqtisodiy jihatdan asosli usul bilan obyektga bevosita o'tkazish mumkin bo'ladi. Egri xarajatlar obyekt bilan bevosita aloqaga kirishmaydi va odatda bir necha obyektga tegishli bo'ladi.

Xarajatlarni ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga ko'ra ham tasniflash mumkin. Bunda o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar ajratib ko'rsatiladi. O'zgaruvchan xarajatlarning umumiy summasi ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri mutanosib ravishda o'zgarib turadi. Doimiy xarajatlarning umumiy summasi esa ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan o'zgarishsiz qoladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT,$$

bunda,

YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut, va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda,

AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX - davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ - asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

- xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bunda,

UF - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to'langungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FF - FZ,$$

bunda,

STF - soliq to'langungacha olingan foyda;

FF - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida foydadan to'lanadigan soliqni va minus qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bunda,

SF - sof foyda;

DS - foydadan to'lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to'lovlar [2].

Yuqoridagi Nizomga asosan belgilangan ushbu talablar xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida xarajatlarni rejalashtirish va xarajatlarni hisobga olishni to'g'ri tashkil etish va yuritish imkoniyatini yaratadigan me'yoriy-huquqiy xujjat bo'lib hisoblanadi.

So'nggi yillarda Respublikamizda qonunchilik bazasida ham ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni keng

jalb etish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, xalqaro bozorga chiqish va mahsulotlarni jahon bozorida sotish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, ayrim me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qaytadan ko'rib chiqish, qo'shimchalar kiritish yoki qaytadan qabul qilish kabi masalalarni kun tartibiga chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" RQ-4611-sonli Qarori [3] qabul qilindi. Mazkur qaror natijasida mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Xulosa va takliflar.

Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bo'lmagan xarajatlarni doimiy nazorat qilishni samarali usulidan foydalanish lozim degan xulosaga kelindi.

Nazorat tizimi korxonada un ishlab chiqarish uchun tayyorlash transport-tayyorlov xarajatlarini tahlil qiladi va og'ishlarni aniqlashi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 13-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 1999-yil 5-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2020-yil.
4. "G'allani etishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2022-yil 28-may.

Mazkur xarajatlar sirasiga, jamg'arma foizi, temir yo'l xarajati, avtotransport xarajati, transport-tayyorlov xarajatlarini kiritish mumkin.

Bundan tashqari, korxonaning un ishlab chiqarishda mahsulotni sotish bahosiga ta'sir etadigan xarajatlarga e'tibor qaratish lozimligini e'tirof etamiz. Ushbu xarajatlar sirasiga: Tashish, saqlash va ishlab chiqarishdagi bug'doy yo'qotish qiymati, bevosita va bilvosita xarajatlari, yoqilg'i, ehtiyot qismlar, boshqa materiallar, tovar yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan pul, oylik ish haqi, yagona ijtimoiy to'lov, amortizatsiya, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va boshqa xarajatlarni kiritish mumkin.

Mazkur tadbirlarni ijrosi natijasida ishlab chiqarish xarajatlarni oshishi oldi olinadi, mahsulotni sotish bahosi barqarorligiga erishiladi;

- turli assortimentdagi mahsulot ishlab chiqarish orqali sotish rentabelligini oshirish imkoniyati yaratiladi;

- nisbatan qimmat bo'lgan materiallarni sifatli va arzon ayni shu materialni muqobilidan foydalanish imkoniyatlarini baholashga etishiladi;

- ishlab chiqarishda yarim tayyor mahsulotlarni sotish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi choralar mahsulot ishlab chiqarishda ortiqcha xarajatlarni oldini olish va tannarxni barqarorligini ta'minlash va katta foyda olish imkoniyatini yaratadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
6. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik.T.: "Iqtisod-Moliya", 2019-yil.
7. J.Bahriddinov. Tovar va xizmatlar makrketingi tizimida narxlarni shakllantirish va boshqaruv hisobini takomillashtirish. PhD dissertatsiya avtoreferati. TMI. 2022-yil.
8. www.lex.uz
9. www.ziyonet.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statsitika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari - www.stat.uz